



ALISHER NAVOIY VA BOBUR MEROSI — BEQIYOS MA'NAVIY XAZINADIR

**O'roqova Nargiza Anvarovna Nurota tumanidagi 18 sonli IDUMda ma'naviy -
ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari**

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Alisher Navoiy va Bobur merosi — beqiyos ma'naviy xazinadir mavzusini yoritishda bir qancha fikrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar:

"tarixi muluki Ajam", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Risolai muammo", "Majolis un-nafois", "Munshaot", "mezon ul-avzon", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nasoim ul-muhabbat", "Devoni foniy", "Lison ut-tayr", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "nazm ul-Javohir", "tarixi anbiyo va hukamo", "Siroj ul-muslimin", "Arbain", shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat, mehr-muruvvat, nuri.

Mana oradan besh asrdan ortiq vaqt o'tibdiki ulug'mutafakkir bobolarimiz, so'z mulkinging sultoni Alisher Navoiy hamda shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning boy ma'naviy merosi butun dunyoni hayratga solib, insonlar qalbiga, ongu shuuriga ezgulik, insonparvarlik, saxovat va mehr-muruvvat nurini taratib kelmoqda. Shu kunlarda yurtimizda Alisher Navoiy tavalludining 581 hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 539 yilligi keng nishonlanmoqda.

Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o'zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o'ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug' shoirning asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib kichik Osiyogacha etib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o'qishmoqda.

"Xamsa" dostoni Navoiy ijodining durdonasi sanaladi. O'zbek tilida "Xamsa" – besh Doston yaratish maqsadi yoshligidan bo'lgan. Bu maqsadini 1483-85 yillarda amalga oshirdi. Asar o'zbek adabiyoti shuhratini olamga yoyib, jahon adabiyotining durdonalaridan biriga aylandi. Yana uning "tarixi muluki Ajam", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Risolai



muammo", "Majolis un-nafois", "Munshaot", "mezon ul-avzon", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nasoim ul-muhabbat", "Devoni foniy", "Lison ut-tayr", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "nazm ul-Javohir", "tarixi anbiyo va hukamo", "Siroj ul-muslimin", "Arbain" kabi bebaho asarlarini ham asrlar osha ajdodlarimiz katta qiziqish, zo'r ehtirom bilan o'qib-o'rganib kelganlar. Bu shoh asarlardan bugungi va kelgusi avlodlar ham bahramand bo'laveradilar.

O'zbekiston istiqlolga erishish arafasidayoq mamlakatimizda 1991 yil – "Alisher Navoiy yili" deb e'lon qilinishi zamirida olamcha ma'no mujassam bo'lganini izohlab berdi.

Adib Oybekning "Navoiy" va Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" ("Bobur") romanlarini teran nigoh bilan o'qishni tavsiya etar ekan, yana bir buyuk ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqida ham so'z yuritdi.

Ma'lumki, Jahon tamadduni rivojiga o'z hissasini qo'shgan Zahiriddin Muhammad Bobur 1483 yil Farg'ona vodiysining Andijon viloyatida tavallud topgan. Uning otasi Umar Shayx Mirzo Temuriylar sulolasiga mansub bo'lib, Abu Said Mirzoning o'g'illaridan biri, Farg'ona hukmdori edi. Bolalik davri Temuriylar davridagi ichki siyosiy nizolar avj olgan davrga to'g'ri kelgan bo'lsa-da, u o'zida vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatlilik kabi bir qancha ijobiy hislatlarni namoyon eta oldi.

Sohibqiron Amir Temur avlodlari ichida Farg'ona vodiysi ahlining juda ko'p fazilatlarini o'zida mujassam etgan shaxs buyuk, ajdodlarimizdan biri Zahiridin Muhammad Bobur hayoti va ijodi qariyb 5 asrdan buyon katta qiziqish bilan o'rganilib kelinmoqda. Bu esa, uning asarlari jamiyat hayotida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini bildiradi.

Mustaqillik yillarida ota bobolarimizning ma'naviy merosini o'rganish uchun barcha shart-sharoit yaratildi. Bog' yaratish an'anasi buyuk ajdodlarimizdan meros. Amir Temur bobomizning Samarqanddagi serfayz bog'lari dovrug'i Yetti iqlimga mashhur bo'lgan. Bu ezgu an'ana ilg'or fikrli temuriyzodalar, xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan ham davom ettirilgan. Falak gardishi ila ul mo'tabar zotning "bog'i Shahroro", "bog'i



Jahonoro", "O'rtabog'", "bog'i vafo", "bog'i Bobur" kabi bog'lari o'zga yurtlarda qolib ketdi... bugun o'sha bog'lar o'rnida biror tup daraxt qoldimi-yo'qmi, bilmayman. Biroq, buyuk mutafakkir shoir va davlat arbobi bo'lgan bobomizdan qolgan beqiyos ma'naviy bog'lardan nafaqat biz, balki, butun jahon ahli asrlar osha bahramandirlar. Ma'naviyat osmonida quyosh yanglig' porlagan bu xazinaning esa umri boqiydir. Shu mavzuda ancha yillar muqaddam rahmatli adibimiz Pirimqul Qodirov shunday degan edi:

– Bog' Yaratganning nomi boqiy bo'lar ekan. Yurtimiz istiqloli bergan yana bir benazir ne'mat – shahrimiz ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan eng go'zal bog'lardan biriga Bobur nomi berilgani bo'ldi. Ko'z o'ngimizda Bobur bog'i yangidan barpo etilgandek quvongan edik. Bu istirohat bog'iga qachon bormay buyuk ajdodimiz ruhi kezib yurganini his etaman.

Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi munosabati bilan 1993 yilda Yurtboshimiz farmoniga binoan mazkur istirohat bog'iga va unga tutash ko'chaga Bobur nomi berilgani chindan ham yurtimizda ulkan voqea bo'lgan. Buyuk bobomiz nomi Andijondan tortib Qoraqalpog'istongacha barcha viloyatlarda, shaharlarda abadiylashtirilgani betakror ajdodimiz ruhini shod etgan! Mirzo Bobur tengsiz ijodi ila har bir inson qalbida ezgulik daraxtini undirib ketgan. Bu daraxtlar kurtagi yangi-yangi avlodlar qalbida ham mudom barq urayotir. Illo, Bobur bobodek buyuk ajdodimiz bilan faxrlanmagan, qalbida g'urur hissini tuymagan yurtdoshimizni tasavvur qilolmayman. Qaysiki qallda Bobur bog'lari barq urib turgan ekan, demak u yuksak ma'naviyatga erishibdi, hayotning ma'nosini, mazmun-mohiyatini anglab etibdi, degim keladi.

Buyuk ajdodimiz hayoti va ijodi haqida biz tenggilar o'tgan asrning 79-yiligacha faqat adabiyot darslarida qisqacha ma'lumotga ega bo'lgandik.

Romanni ishtiyoq bilan mutolaa qililar ekanman, har kecha tushimda Bobur bobomizni ko'rardim. Zarbof to'niga monand chiroyli sallasi va peshonasiga qadalgan Ko'hi-nuri bilan ot ustida kelayotgan bobomiz siymosini ko'rib hayratga tushardim...

Ulkan iste'dod sohibi bo'lgan adib Pirimqul Qodirovning o'z iborasi bilan aytganda "tarixni teleskop bilan kuzatib", Bobur zamonasini ko'zi bilan ko'rgandek tasvirlagandi. Romanni mutolaa qilgan o'quvchi ko'z oldida buyuk ajdodimiz Mirzo Bobur va



zamondoshlari siymosi yaqqol namoyon bo'ladi. Yozuvchi mazkur romani orqali Boburni butun bo'yi-basti bilan qayta gavdalantirib bergan.

Yurtimizda hali mustabid tuzum hukm surayotganiga qaramay Prezidentimiz Islom Karimov tarixiy haqiqatlarni tiklashga kirishgani juda ulug'vor ishlarning boshlanishi edi. 1989 yilda "Boburnoma" kitobi 200000 nusxada chop etilgan bo'lsa, 1990 yil oktyabr oyida bu shoh asar yaratilganligining 460 yilligi nishonlanishi bizga ruhiy quvvat baxsh etdi. "Avvalo, ulug'vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari bo'lmish "Boburnoma" yozilganligining 460 yilligini keng nishonlayotganimizdan xursandmiz,– degan edilar Yurtboshimiz.– Bu bayram ayni paytda Sharq xalqlari tarixi va adabiyotiga beqiyos hurmat va muhabbatni ifoda etadi". O'sha Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik opera va balet katta teatrida "Boburnoma" ning 460 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali kecha tarixiy haqiqatning tom ma'noda tiklanayotgani ifodasi edi. "Boburnoma"dagi tabiat tasvirlari, Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlarining tarixiga oid Nodir kuzatishlar, tilga, dinga, huquqshunoslikka, san'at va adabiyotga oid tadqiqotlar Bobur Mirzoning qomusiy bilimlar egasi bo'lganini ko'rsatadi. Demoqchimanki, bugungi va kelgusi avlodlar ham bu buyuk ma'naviy merosni teran o'rganib borishlari ularni albatta ma'nan yuksaklikka olib chiqaverdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. 6-жилд: Навоий (роман), Тошкент, 1976.
- 2.Жўраев М. (тўпловчи), Эл деса Навоийни (Навоий ҳақида ривоятлар), Тошкент, 1991.
- 3.Уйғун, Иззат Султон. Алишер Навоий, 5 пардали драма, Тошкент, 1943.
- 4.Бать Л., Ҳаёт гулшани (қисса), Тошкент, 1968.
- 5.Мирказим Осим. Зулмат ичра нур (қисса), Тошкент, 1987.
- 6.Айбек. Собрание сочинений. Том второй: Навои (роман), Ташкент, 1985.
- 7.Уйғун, Иззат Султан. Навои (драма)



2023-FEVRAL

WWW.REANDPUB.UZ



8. Хуршид Даврон. Навоий армони (ҳикоя)

9. Эркин Аъзам. Навоийни ўқиган болалар (ҳикоя)

